



TOG'AY MURODNING "QO'SHIQ" QISSASIDA QO'LLANILGAN
DIALEKTIZMLAR TAHLILI.

Muborak O'rozova

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

Muborakorozova2005@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Tog'ay Murodning "Qo'shiq" qissasida mahorat bilan foydalanilgan xalq tilining jonli shakli hisoblanmish dialektizmlarga alohida e'tibor qaratilib, ularning asarga qo'shimcha yuklayotgan vazifasi va funksiyasi to'laonli yoritilib berilgan. Shuningdek, asar tarkibida uchraydigan sheva birliklariga misollar keltirilib, dialektik birliklarning fonetik, leksik va morfologik jihatlarini tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *"Qo'shiq" qissasi, dialektizm, fonetik, leksik, morfologik dialektizmlar, sheva birliklari, varvarizm, vulgarizm, undov, taqlid va modal so'zlar.*

Annotation: *in this article, special attention is paid to dialecticisms, which are considered a lively form of the folk language, skillfully used in the story "song" by Togay Murad, and the task and function of which they impose additional emphasis on the work are fully covered. Examples of sheva units found in the work are also given and the phonetic, lexical and morphological aspects of dialectical units are analyzed.*

Keywords: *"song" verse, dialecticism, phonetic, lexical, morphological dialectisms, sheva units, varvarism, vulgarism, exclamation, imitation, and modal words.*

Аннотация: *В данной статье особое внимание уделено диалектизмам, считающимся живой формой народного языка, умело использованной в рассказе Тогай Мурада "песня", и подробно освещается их функция и функция, которые накладывают дополнительную нагрузку на произведение. В работе также приводятся примеры диалектных единиц, встречающихся в структуре, и анализируются фонетические, лексические и морфологические аспекты диалектных единиц.*

Ключевые слова: *сказка "песня", диалектизм, фонетические, лексические, морфологические диалектизмы, диалектные единицы, варварство, вульгаризм, восклицание, подражание и модальные слова.*

Til - bu nafaqat aloqa vositasi, balki millatning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ijtimoiy ongining aksidir. Har bir til o'z ichida turli sheva va lahjalarni mujassam etgani kabi o'zbek tili ham rang-barang shevalar boyligiga ega. Sheva - aslida forscha so'z bo'lib, ovoz, til, so'zlashish, odat, yo'sin, ravish kabi ma'nolarni bildiradi. Shevalar o'zbek tilining o'ziga xos ba'zi bir fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarga ega bo'lgan kichikroq bir qismi bo'lib, o'zlarining jug'rofiy o'rinlari bilan bir-birlaridan ajralib turadi. O'zbek xalqining, ayniqsa, Surxon vohasining shevasi insonni o'ziga jalb etmasdan qolmaydi.



Tog'ay Murodning barcha asarlarida, shuningdek, Shukur Xolmirzayev ijodida ham aynan sheva birliklarini talaygina uchratish mumkin. Hozirda ham aynan biz Tog'ay Murodning "Qo'shiq" qissasidagi dialektizmlarni tahlil qilamiz.

Dialektizmlar bo'yicha tadqiqot ishi olib borgan B.Fayzullayevning fikricha, ayrim sabablarga ko'ra va ma'lum maqsadni ko'zlab, adabiy til tarkibida qo'llaniladigan, unda ma'lum bir vazifani bajaradigan alohida biror dialekt va mahalliy shevalarning fonetik, morfologik, leksik va sintaktik xususiyatlarini o'zida aks ettiradigan so'z va so'z birikmalari dialektizmlardir. Badiiy asarlarda dialektizmlarni qo'llashdan bir nechta maqsad ko'zda tutiladi:

1. Asarlarda hayotning realistik tasvirini chizish.
2. Mahalliy koloritni berish.
3. Personajlar nutqini individuallashtirish yoki biron tushunchaning shevadagi atamasi kitobxonga ahamiyatli bo'lgan holatning mahalliy belgisini bildirish.
4. Asar tilini boy va jozibador qilish.

Tog'ay Murod ham asarlarida ana shunday maqsadni ko'zlab va o'qimishlilikini oshirish, shuningdek, voqeaning sof chiqishi uchun ham dialektik birliklardan atroflicha foydalangan.

Dialektizmlar uch guruhga bo'linib, tasnif qilinadi:

1. Fonetik dialektizmlar
2. Leksik dialektizmlar
3. Morfologik dialektizmlar

Tog'ay Murod o'zining barcha asarlarida bu turdagi dialektizmlarning hammasidan foydalangan. Yozuvchining asarlaridagi eng birinchi ko'zga ko'rinadigan xususiyati ham sheva elementlari orqali badiiy jozibadorlikka erishilganligidir. Masalan, yozuvchi asarlarida fonetik, leksik va grammatik shevaga xos so'zlar obrazlilikni ta'minlab, jozibadorlik va uslubiy rang-baranglikni yuzaga keltirgan.

Fonetik dialektizmlar, asosan, tovushlarni o'zgartirib qo'llash, tovush orttirilishi, tovush tushishi va tovushlarni qavatlab qo'llash ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.

Fonetik dialektizmlar adabiy tildagi so'zlardan o'ziga xos fonetik xususiyatlari – unlilarning cho'ziqligi va yumshoqligi, bir tovush o'rnida boshqa tovushning ishlatilishi, tovush orttirilishi, tovush tushirilishi kabilar bilan farqlanadigan hodisa hisoblanadi. Mana shunday fonetik hodisalar Tog'ay Murod asarlarida ko'plab uchraydi. Masalan,

- Mardon juvozkash borning bolasi, mayda-chuydalarga oyog'iniyam yig'maydi. Bu gap tarkibidagi oyog'iniyam so'zi aslida oyog'ini ham deb qo'llanilishi kerak edi, lekin yozuvchi qahramonning nutqiy individualligini yaratish maqsadida "h" tovushining o'rniga "y" tovushidan foydalangan.

- Nima, biron zaril ish bormidi? Bu gapda esa zarur so'zi badiiy asar talabi bilan zaril deb qo'llanilgan, natijada dissimilatsiya hodisasi yuzaga chiqqan.





Dissimilatsiya. Soʻz tarkibidagi undoshlarning boshqa tovush taʼsiridagi tovush variantiga ega boʻlishi dissimilatsiyadir.

Leksik dialektizmlar - bu faqat maʼlum bir hududda uchraydigan, oʻsha hudud uchun tushunarli, boshqa sheva vakillari uchun yot boʻlgan, maʼnosini faqat kontekstdan anglash mumkin boʻlgan soʻzlardir.

Leksik dialektizmlar, koʻpincha, ogʻzaki soʻzlashuv nutqiga hamda badiiy asar personajlari nutqiga xos boʻlib, qalam ahli asarning yanada qiziqarli boʻlishini taʼminlashda ulardan unumli foydalanadi. Togʻay Murod qissa va romanlarida dialektizmning leksik turi ham salmoqli qoʻllangan. Adibning shu kungacha yozgan asarlari oʻzbek milliy adabiyotining yetuk namunalaridan boʻldi desak adashmaymiz. Bu asarlarning har birida adib Surxon vohasining sodda va kamtar xalqini, uning ichki va tashqi qiyofasini, dard-u alamlarini, orzu va armonlarini qoʻshiq qilib kuylagan. Adib nutqqa munosib rang berish, individual til va obraz yaratish, obrazlar xarakterini ochish uchun baycha, jigit, bova, xamsoya, ogʻil, korson, iyarmak, angib yotmoq, yonashtirmoq kabi shevaga xos soʻzlardan unumli foydalangan. Quyida yozuvchining “Qoʻshiq” qissasida uchrovchi leksik dialektizmlarni sharhlaymiz:

- Askar hadahalab kiyinib, otilib bordi. Hadahalab adabiy tilda mavjud boʻlmagan soʻzlar sirasiga kiradi, asosi hadaha - tezlik bilan, tezda, darrov degan maʼnolarni anglatib, bu soʻzdan Togʻay Murod -la soʻz yasovchi qoʻshimchani qoʻshib, feʼl yasab, asariga zeb bergan bu soʻzdan foydalangan holda.

- Otga koʻngli bor ekan, esaysin, ot olib beraman. Bu gapdagi esaysin soʻzi “es kirib katta boʻlsin”, “es kirsin” degan maʼnoda qoʻllanilgan.

- Togʻora oldidagi satilga qoʻlini solib, seskanib ketdi. Ayrim shunday leksemalar borki, ular turli shevada turli predmetni ifodalab keladi. Masalan, mana shu gap tarkibidagi togʻora soʻzi. Baʼzi shevalarda togʻora - kir yuvadigan idishni ifodalasa, ayrim sheva vakillari bu soʻzni non solib qoʻyiladigan katta tovoqqa nisbatan qoʻllasa, boshqalar esa osh suziladigan tarelkani ham shu soʻz bilan atashadi. Satil soʻzining adabiy tildagi muqobili chelak, ayrim sheva vakillari, xususan, Togʻay Murod qahramonlari ham suv tashish uchun moʻljallangan idishni satil deb ishlatgan ekan.

- Loʻmbozday qulf chang bosib yotibdi. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” da “loʻmboz” soʻzi “tom yo paxsaga bosish uchun yumaloqlangan bir boʻlak loy” degan maʼnoni bildiradi. Bu gapda muallif qulfga nisbatan qoʻllagan “loʻmboz” soʻzini yumaloqlangani jihatidan oʻxshatgan boʻlsa, ajab emas.

- Anavi yerdagi olqindini ishlatib boʻladi. Bu gap tarkibidagi “olqindi” soʻzini koʻpchilik tushunmaydi. Asosan, qipchoq shevasi vakillari nutqida uchratamiz. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” da olqindi soʻzi “qayta-qayta ishlatilaverib yupqa boʻlib ketgan sovun qoldigʻi” degan maʼnoni anglatadi. Bu gapda ham aynan shu maʼnoda qoʻllanilgan.

Bundan tashqari mazkur asarda juda koʻp dialektik leksemalarni uchratishimiz mumkin: Buvi > moma, buva > bova, oʻgʻil > ul, ona > ena, yana > tagʻin, zoʻrgʻa > illa, kavush > kalish, qoʻshnilar > hamsoyaqoʻllar, qarindoshlar > xesh-taborlar, bogʻlamoq > qantarmoq,





tez-tez > ulay-bulay, ulg'aygan > do'pposday, molxona > og'ilxona, oyoq yuzining do'ng joyi > bebilchak, haqrost > haqqost, bosh barmoq > boshmaldoq, ostona > poygak, sigir > govmish tarzida qo'llangan.

Morfologik dialektizmlar - adabiy til va shevalardagi so'z o'zaklariga forma yasovchi affikslarni qo'shish orqali vujudga kelgan morfologik-dialektal so'zlar turli xil bo'lib, ular, odatda, forma yasovchi affikslarning birgalikda qo'llanishi, turli xil fonetik o'zgarishlarga uchrashi yoki faqat shevalarga xos forma yasovchi affikslarning qo'shilishi natijasida shevalarda (adabiy til uchramaydigan) anchagina morfologik dialektal so'zlar paydo bo'lgan. Biz buni Tog'ay Murodning asarlarida ham talaygina uchratishimiz mumkin:

- Ha-a, otangma, otang qirga arpa o'roqqa ketvedi, ulim. Otangma so'zida qo'llangan -ma qo'shimchasi so'roq yuklamasi -mi ning shevadagi varianti hisoblanadi, asar qahramoni nutqidan kelib chiqib, shunday qo'llangan. Ketvedi so'zi esa aslida ketgan edi shaklida, og'zaki nutqda fikrni tez aytish maqsadida jonli so'zlashuv talabi bilan -gan o'tgan zamon shakli -v ga o'zgartirilgan.

-Qo'lini yerg'a tirab, yotib turdi. Bunda jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -ga -g'a tarzida qo'llangan va bu yozuvchining asarni oson o'qilishi uchun qo'shgan hissasi hisoblanadi.

- Unda qanday qilib bayt bitayapti? Bilamizki, o'zbek tili qonun-qoidalariga ko'ra -yapti hozirgi zamon qo'shimchasi undosh harf bilan tugagan so'zdan keyin kelib, -ayapti deb talaffuz qilinsa-da, -yapti deb yoziladi. Ikki undosh yonma-yon kelishi so'zlashuvda qiyinchilik tug'dirgani sababli ham bir unli orttiriladi.

- Uydi yig'i bosdi, hovlini yig'i bosdi. -ni tushum kelishigi qipchoq shevasi so'zlashuvlari orasida jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlardan keyib kelsa, -ti shaklida, jarangli undosh bilan tugagan so'zdan keyin kelsa, -di shaklida ishlatilishi tabiiy hol. Rasmiy tilda faqat adabiy normaga talab beradigan so'zlar va qo'shimchalardan foydalangan holda nutq so'zlash barchaga qiyinlikni keltirib chiqaradi. Qo'shimchalarning jonli so'zlashuvda bunday o'zgarishga uchrashiga asosiy sabab ham aynan mana shu qiyinchilikdan qochish va o'zimizga osonlikni yaratishdir.

Ushbu asarda yana biz varvarizm va vulgarizm namunalariga ham duch kelamiz. Bular asarning yanada tabiiy chiqishiga, o'qishga ishtiyoqni oshirishga zamin hozirlagan.

Varvarizm - bir tilga chet tillardan kirib kelgan, tilda to'la o'zlashmay, yotligi bilinib turadigan so'z va iboralardir. Bunga misol qilib asarda muallif tomonidan qo'llangan ushbu asar tarkibida uchrovchi varvarizmlarni keltirish mumkin:

...Bu ashulaning tekstini kim yozgan? Tekst ruscha so'z bo'lib, matni so'zi o'rnida kelgan.

...Birga ishlaydigan odamlaringizdan adresingizni bilib oldik. Bunda ham adres ruscha so'z, manzil ma'nosida qo'llangan.

...Xalqning ichida intelligensiyalari ham bor. Intelligensiya so'zi inglizcha so'z bo'lib, aqli, bilimli kishilarga ishora qilib kelgan.



...Vaqt yo'q, jiyan, globalniy problemalar bilan bandman. Globalniy problemalar - katta muammolar so'zi o'rnida ishlatilgan bo'lib, ikki so'z ham ruscha so'zlardir.

Vulgarizmlar - nutqda insonni haqoratlashda ishlatiladigan jumlar majmuyi. Bunday leksemalar yoki ularning vulgar ma'nolari adabiy til birligi hisoblanmaydi, ularni qo'llash nutq madaniyatiga putur yetkazadi, lekin badiiy asarlarda uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. Asarda shu ikki vulgarizm namunasini uchratish mumkin:

...Enag'arning bolasi, to'xta deyman.

...Ukkag'arlar o'qib, ko'zi ochiladi-yu, bitta-bittalab shaharga qarab qochadi. Bu ikki gapdagi namunalar vulgarizmlar sanalib, haqorat ma'nosida qo'llangan.

Shu jumladan asarda "...Voy, alkashmi?" (hayrat-taajjub ma'nosida), "...Hafsalasi pir bo'lib, ufffff, dedi" (charchoq ma'nosida), "...Daho bilan bir vaqtda yashagn shaxs deb yozilasiz. -Qulluq, qulluq (nutqiy-odat)", "...Qani, kelinglar, xush ko'rdik" (nutqiy-odat) kabi UNDOV so'zlarni, "...Ulug' shoirning nomi aytilishi bilan davra qars-qars chalpachaldi", "...Muzey direktori qult-qult suv ichdi", "...Buloq suvlariga nimadir shitir-shitir etib tushyapti" kabi tovushga TAQLID so'zlarni, "...Askar otasining niyatini payqadi, shekilli" (gumon ma'nosida), "...Xayriyatee, ovozi tindi" (xursandlik ma'nosida) kabi MODAL so'zlarga ham duch kelamiz.

Yozuvchi Tog'ay Murodning "Qo'shiq" asarini tahlil qilib o'tganimizdek, dialektizmlarning barcha turi o'rni bilan qo'llangan. Tog'ay Murod o'zi tug'ilib o'sgan yurt xalqini qanday tasavvur qilsa, asarlarida ham shunday yoritadi. Surxon vohasining tabiatiga o'xshash odamlari ham yozuvchi qalamida jonlanadi. Uning shu yurt farzandi ekanligi, asarlarining tili soddaligi, doimiy kitobxonlar qo'lidan tushmasligi esa o'sha yurt odamlarining armon va orzularini o'z tili, shevasi bilan tasvirlashi sabablidir.

Ushbu maqoladan xulosam shuki, badiiy matnda dialektik birliklarning qo'llanilishi oddiy stilistik bezak emas, balki chuqur semantik yuklama, milliy tafakkur mahsuli va obraz yaratishdagi vosita sifatida qaralishi zarur. Tog'ay Murodning "Qo'shiq" qissasi misolida kuzatilgan leksik, fonetik va morfologik jihatdan ajralib turuvchi sheva birliklari yozuvchining tilga bo'lgan sezgir munosabati, xalq ruhiyatini teran anglashi va real hayot manzaralarini adabiy-estetik mezonlarda tasvirlay olish mahoratini ko'rsatadi. Ayniqsa, undov va taqlid so'zlarning emotsional fon yaratishdagi roli, modal birliklar orqali qahramonning subyektiv holatini ifodalashdagi vazifasi, varvarizm va vulgarizmlarning esa sotsiolingvistik qatlamlarga oid ishoraviy kuchi muhimlik kasb etadi. Bundan shuni anglash mumkinki, dialektizmlar badiiy asarlarda faqat til ko'rinishi emas, balki ijtimoiy, madaniy va estetik ma'nolarning qovushgan qatlamidir. Shunday ekan, ularni tahlil qilish nafaqat lingvistik, balki madaniy-gumanitar yondashuvlarni ham talab etadi. Dialektik birliklar adabiy matnning semantik jozibadorligi va stilistik rang-barangligini ta'minlovchi kuchli vosita sifatida o'rganilishi zarur.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fayziyeva Xadicha. O'zbek dialektologiyasi. Termiz. "Kitobnashr". 2024. 20b.
2. Fayziyeva Xadicha. O'zbek dialektologiyasi. Termiz. "Kitobnashr". 2024. 121b.
3. Fayzullayev.B. Dialektizmlar va ularning badiiy adabiyotdagi o'rni. "O'zbek tili va adabiyoti". 1977, 4-son, - b.35
4. Ibrohimova F. Omon Matjon poeziyasida dialektizmlar. Xorazm shevalarini areal o'rganish. Toshkent, 1998, - 32-39b
5. Safarov Ibrohim. Badiiy matnda dialektizmlarning stilistik xususiyatlari.(Tog'ay Murod asarlari misolida) Dissertatsiya. Termiz. 2023.
6. Tog'ay Murod. "Qo'shiq" qissasi. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1987.
7. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari.Fan,Toshkent, 2007. - B. 59.